



OLIV TA'LIM TIZIMIDA MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Aminova Mahfuza Jamoladdinovna

Ma'mun universiteti "G'arb tillari va adabiyoti" kafedrasini
o'qituvchisi

Iskandarova Navbahor Ilxomovna

Ma'mun universiteti "G'arb tillari va adabiyoti" kafedrasini
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19941161>

ARTICLE INFO

Received: 14th April 2026
Accepted: 15th April 2026
Published: 28th April 2026

KEYWORDS

millatlararo munosabat,
millatlararo muloqot madaniyati,
ko'p millatlik, milliy o'zlik,
kompetensiya, globallashuv.

ABSTRACT

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida turli millatlarning ma'naviyatini, turli etnik madaniyatlarning o'zligini anglash, o'ziga xos etnik psixologiya, hayotiy faoliyat obrazini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini o'zida mujassam etgan turli millat vakillari tahsil olmoqda, shuning uchun talabalarda millatlararo hamkorlik madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirish, bu jarayon amaliyotining holatini o'rganish zarur.

KIRISH: So'nggi yillarda ta'limning yangi strategiyasiga, xususan, ko'p millatli jamoada millatlararo hamkorlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ijobiy yondashuvlarni shakllantirish ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalardan biri bo'lib qoldi. Bu ishda faylasuflar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, psixologlar, fiziologlar tobora faol ishtirok etmoqdalar. Ularning diqqat markazida yaratilgan sharoitlar, xususiyatlar, shaxsning rivojlanish mexanizmlari va ko'p millatli jamoada yuzaga keladigan muammolarning oldini olish masalalari turibdi. Ta'lim yoshlarning rivojlanish g'oyalarini ro'yobga chiqarish, ularda eng muhim xususiyat va fazilatlarini shakllantirishning o'ziga xos mexanizmiga aylanmoqda.

MAQSAD: Tadqiqotning maqsadi Oliy ta'limda xalqaro muloqot madaniyatini rivojlantirish o'quv dasturlariga madaniyatlararo kompetensiya, bag'rikenglik va chet tilini bilishni integratsiyalashni talab qiladi. Nazariy jihatdan asoslangandialog va konstruktivistik nazariyalar, bu talabalarni globallashgan muhitga tayyorlash uchun madaniy xilma-xillikka hurmat, hamdardlik va samarali madaniyatlararo o'zaro ta'sirga ustuvor ahamiyat beradigan pedagogik yondashuvlarni talab qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: oliy ta'lim tizimida millatlararo muloqot kompetentligiga oid ilmiy manbalar o'rganildi va ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilindi. Asosiy manbalar sifatida xalqaro kommunikatsiya, psixologiya va ta'lim sohalaridagi tadqiqotlar tanlab olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bu ma'noda madaniyat o'z ichiga sanat, fan va manaviy tizimlarni oladi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Inson bu millatlararo tushunchasini anglash, tushunish va sintez qilish orqali ularda ko'nikma paydo bo'ladi.

XULOSA: Oliy ta'lim tizimida millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- talaba-yoshlarda millatlararo totuvlikni ilmiy tadqiq qilishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish;
- O'zbekistonda millatlararo totuvlik muammosini pedagogika fani doirasida o'rganilganlik holatini aniqlash;
- millatlararo totuvlikning mamlakat taraqqiyotida tutgan ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy ahamiyatini ochib berish;
- talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonlarini tadqiq qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;
- talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari aniqlash;
- talabalarda muloqotchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali millatlararo totuvlikka erishish omillarini tahlil qilish;
- millatlararo muloqot madaniyatining ijtimoiy totuvlikni ta'minlashdagi roli o'rganish;
- O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida talabalarda millatlararo totuvlik –milliy yuksalishning ustuvor yo'nalishi sifatida tutgan o'rni va ahamiyatini tadqiq etish;
- talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ma'lumki, bugungi kunda globallashuv hodisasi turli millat va elat vakillarining bir-biriga yaqinlashuv jarayoni bilan ham izohlanadi. Bu ayniqsa, yoshlar qatlami, xususan talabalar bilan bog'liq munosabatlarda faol namoyon bo'ladi. Turli millat yoshlarining bilim olish maqsadida birlashishi, bir-biri bilan faol muloqotga kirishi ulardan muayyan ijtimoiy-madaniy malakalarni talab qiladi. Shunday ekan, talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, turli xalqlar, etnik birliklarga mansub yoshlarning madaniy hamkorligi, o'zaro muloqotini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda xalqaro tashkilotlar tomonidan barcha xalqlar uchun konsensusga asoslangan, o'zaro muloqot madaniyatiga tayanuvchi yondashuvlarni faol tadbir etishga dolzarb masala sifatida e'tibor qaratilmoqda.

«Jahon tajribasida ta'lim migratsiyasi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari avvaliga iqtisodiy, demografik, huquqshunoslikka oid yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa, XX asrning 90 yillari o'rtalariga kelib siyosatshunoslik va sotsiologiya fanlarida globalizmning faollashgan «mobillik belgisi» sifatida tadqiq qilinmoqda. Murakkablashgan, ammo tizimli axborotlashgan dunyoning harakatchan intellektual qiyofasi so'nggi o'n yilliklar ichida «aqli» migratsiya maqomi bilan o'zining sotsiomadaniy manzarasini namoyon qilmoqda. Ijtimoiy-ma'naviy hayotga ta'sir o'tkazar ekan, intellektual migratsiya jarayonlari oqibatida yuzaga kelayotgan turli mazmundagi global muammolar kishilarning turmush tarzi, kundalik hayot va tafakkur tarzi, xususan, milliy mentalitet va identiklikdagi o'zgaruvchan hodisalarni o'rganishga majbur qilmoqda»

Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni barqaror saqlash va rivojlantirishga, turli millat vakillari, xususan yoshlarda o'zaro totuvligini mustahkamlash va rivojlantirishda davlat va mahalliy boshqaruv tizimlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish, fuqarolarning tolerantlikka asoslangan ma'naviyatini yanada yuksaltirish bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratilmoqda. «Millatlararo totuvlikni ta'minlashda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 138 ta milliy madaniy markazning o'rni beqiyos. Aynan shu nuqtai nazardan kelgusida ham millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi».

Bu yurtimizda o'zbeklar va boshqa xalqlarning erkin, ozod istiqomat qilishlari, titul millat bilan teng huquqli fuqarolar sifatida yashashlari, o'z milliy tili, madaniyati, an'analarini saqlash va rivojlantirishda dunyoda andozasi bo'lmagan huquqiy, ma'naviy va ijtimoiy yo'nalishlarda sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Oloy ta'lim tizimida olib borilgan tadqiqotlarda mavzuga oid nazariy g'oya va xulosalarga munosabat bildirib, mazkur yondashuvlardan milliy totuvlikka erishish yo'lida qanday foydalanish imkoniyatlariga ega ekanligi tadqiq etilgan bo'lsada, biroq milliy totuvlikka erishishda titul millat bo'lgan o'zbek xalqining tolerant tabiati, insonparvarligi, mehr-shafqatliligi, turli konfessiyalar va madaniy o'ziga xoslikka mansub aholi vakillarining milliy muloqot tizimidagi bag'rikenglik yondashuvini mustahkamlashning harakatlantiruvchi omili ekanligini atroflicha tadqiq etish dolzarb amaliy ahamiyatga ega.

Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish orqali totuvlikni ta'minlash, ijtimoiy-pedagogik jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- yangi O'zbekiston sharoitida talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish tolerantlik, plyuralizm, teng huquqlilik tamoyillari ustuvor yo'nalishlar sifatida o'rin olishining ijtimoiy ahamiyatini asoslash;

- talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda bag'rikenglik, insonparvarlik, ezgulik fazilatlarining uyg'unlashuvi bilan birga teng imkoniyatlar muhiti yaratilganligi va ma'naviy-intellektual rivojlanishida pozitiv dinamik tendensiya amal qilayotganligini isbotlash;

- talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini intensivlashuvining muhim jihatlari va yaqin o'n yillikda kutilayotgan transformatsion jarayonlarining sotsiologik prognozini ochib berish;

- talabalarda muloqotchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali millatlararo totuvlikka erishish omillarini tahlil qilish;

- talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini ijtimoiy-madaniy ijod vositalari yordamida shakllantirishning ko'pmadaniyatli-integrativ modelini asoslash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz // - T.: O'zbekiston, 2017. 1-tom, 46-bet.
2. Abduvaliev F.N. «Yoshlarning ta'lim migratsiyasi: ijtimoiy sabablari, strukturasi va holati» mavzusida dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2021 yil, 5-bet.
3. Bekmuradov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya, Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi 2020. – B.433; Matibaev T. Ijtimoiy hamkorlik – millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash vositasi. – Toshkent: Yangi kitob, 2016. – B. 156.;